



**BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA HARAKATLI
O‘YINLARNI TASHKIL ETISH MAZMUNINI KLASTERLI
YONDOSHUVLAR ASOSIDA TASHKOMILLASHTIRISHNING
MAZMUNI**

*Toshpo‘latov Elyor Bahtiyor o‘g‘li,
Guliston davlat Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
toshpolatovelyor73@gmail.com*

Annotatsiya

Maqola bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun klaster yondashuvlari asosida harakatli o‘yinlarni tashkil etish mazmunini takomillashtirishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda pedagog kadrlar tayyorlashda klaster texnologiyalarini joriy etishning ahamiyati, ularning bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda, shuningdek, jismoniy tarbiya sohasida o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishdagi roli o‘rganilgan. Bundan tashqari bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining harakatli o‘yinlarni samarali tashkil etishining ahamiyati haqida, o‘qituvchilarining pedagogik kompetensiyalarini oshirish va jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarining jismoniy faoliyatini rivojlantirish zarurati kabi jihatlar ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Klasterli yondoshuv, Analistik metodik tahlil, Empirik tadqiqot, Kvantitativ tadqiqot, So‘rovnama va interv’yu usuli.

**СОДЕРЖАНИЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СОДЕРЖАНИЯ
ОРГАНИЗАЦИИ МОБИЛЬНЫХ ИГР ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
ФИЗКУЛЬТУРЫ НА ОСНОВЕ КЛАСТЕРНЫХ ПОДХОДОВ**

Аннотация

Статья посвящена обеспечению содержания организации динамических изменений на основе кластерных структур для будущих учителей физического воспитания. Значимость внедрения кластерных технологий в подготовке кадров, квалификация специалистов инспекции, роль учителя физкультуры в определении профессионального образовательного процесса. учился. Кроме того, о важности эффективной организации двигательных игр будущих учителей физкультуры, подготовки педагогических компетенций учителей и физического воспитания учащихся на уроках физкультуры. а также потребность в развитии.



Ключевые слова: Кластерный подход, Аналитический анализ, Эмпирико-методологическое исследование, Количественное исследование, Метод анкетирования и интервью.

THE CONTENT OF IMPROVING THE CONTENT OF ORGANIZING MOBILE GAMES FOR FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS BASED ON CLUSTER APPROACHES.

Annotatsion

The article is dedicated to providing content for the organization of dynamic changes based on cluster structures for future physical education teachers. The importance of introducing cluster technologies in the training of personnel, the qualification of inspection specialists, the role of the physical education teacher in determining the professional educational process. studied. In addition, about the importance of effective organization of movement games of future physical education teachers, preparation of pedagogical competences of teachers and physical education of students in physical education classes. as well as the need for development.

Keywords: Cluster approach, Analytical analysis, Empirical methodological research, Quantitative research, Questionnaire and interview method.

Kirish.

Jismoniy tarbiya sohasida ta'lim jarayonining samaradorligi bevosita o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyalariga va o'quvchilarni jismoniy faoliyatga jalgan etish usullariga bog'liq. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakatli o'yinlarni samarali tashkil etish qobiliyati, nafaqat o'quvchilarning jismoniy holatini yaxshilash, balki ularning ijtimoiy va psixologik rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Harakatli o'yinlar, o'quvchilarda jismoniy malakalarini shakllantirish, jismoniy faollikni oshirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik yondoshuvlar talablariga javob beradigan samarali jismoniy tarbiya o'qituvchilari, o'z darslarini faqatgina fizik mashqlar bilan cheklamay, balki o'quvchilarni interaktiv metodlar va innovatsion yondoshuvlar yordamida faol ishtirok etishga undashi lozim. Harakatli o'yinlar, o'z navbatida, jismoniy tarbiya darslarining muhim tarkibiy qismi bo'lib, bu o'yinlar orqali o'quvchilarda nafaqat jismoniy ko'nikmalar, balki o'zaro hamkorlik, jamoa ishida faoliyat ko'rsatish, shuningdek, ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantirish mumkin. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining pedagogik



kompetensiyalarini oshirish, ularning metodik va didaktik bilimlarini mustahkamlashda harakatli o‘yinlarni samarali tashkil etish katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu jarayon o‘quvchilarning individual va guruh sifatidagi jismoniy faoliyatini rivojlantirish, ularning umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirish, shuningdek, ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiyligi ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining harakatli o‘yinlarni samarali tashkil etishning ahamiyati, shu bilan birga, pedagogik kompetensiyalarni oshirish va o‘quvchilarning jismoniy faoliyatini rivojlantirish zarurati o‘rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining malakasini oshirishda harakatli o‘yinlarning rolini aniqlash va ularning ta’lim jarayonida qanday samarali qo‘llanilishini tahlil qilishdir.

Tadqiqotni tashkil etish uslublari

- Analitik-metodik tahlil: Ushbu metod orqali, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun

harakatli o‘yinlarni tashkil etish metodologiyasini va uning klasterli yondoshuvlar asosidagi samaradorligini tahlil qilish mumkin. Tahlil qilingan manbalar asosida harakatli o‘yinlarni tashkil etish bo‘yicha ilmiy adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining amaliy tajribalari o‘rganiladi.

- Empirik tadqiqot usuli: Bu usul yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida

o‘yinlarni tashkil etishning klasterli yondoshuvlar asosida qanday o‘rgatilayotganini amalda tekshirish mumkin. O‘qituvchilarni sinovdan o‘tkazish, ularga harakatli o‘yinlarni o‘rgatish va ularga bog‘liq natijalarni kuzatish orqali metodologik yondoshuvlarning samaradorligi baholanadi.

- So‘rovnama va interv’yu: O‘qituvchilar, talaba va tajribali pedagoglar bilan so‘rovnama

o‘tkazish orqali harakatli o‘yinlarni tashkil etishda klasterli yondoshuvlarning qanday ishlashini va ularning o‘quvchilar tomonidan qanday qabul qilinishini o‘rganish mumkin. Interv’yu orqali o‘qituvchilardan aniq fikrlar olish, ularning tajribalari va metodologik yondoshuvlarga bo‘lgan munosabatini o‘rganish.

- Kvantitativ tadqiqot (testlar va anketalar): Bo‘lajak o‘qituvchilarning bilim va ko‘nikmalarini o‘lchash uchun testlar yoki anketalar yordamida metodik yondoshuvlarning samaradorligi baholanadi. Bu usul orqali, o‘qituvchilarning harakatli o‘yinlarni tashkil etishdagi o‘zgarishlarni o‘lchash mumkin.



Tadqiqot natijalari va muhokamasi

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida harakatli o‘yinlarni tashkil etish mazmunini klasterli yondoshuvlar asosida tashkillashtirishning mazmuni, o‘quvchilarni faollashtirish, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishni ta‘minlash, shuningdek, ta‘lim jarayonini samarali tashkil qilishda yangi metodlarni qo‘llashga qaratilgan dolzARB masaladir. Ushbu mavzu bo‘yicha olib borilgan tadqiqotda bir nechta ilmiy-usuliy yondoshuvlar, jumladan analitik-metodik tahlil, so‘rovnama va interv’yu usuli, va kvantitativ tadqiqot (testlar va anketalar) keng qo‘llanilgan.

1-Jadval

Tadqiqot usullari	Tadqiqot natijalari	Tadqiqot Muhokamasi
<p>Analitik-metodik tahlil usulidan foydalanish orqali, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va mutaxassislar tomonidan mavjud metodikalar, yondoshuvlar va tajribalar sinchiklab o‘rganildi. Bu usul tadqiqotchilarga klasterli yondoshuvlar asosida tashkil etilgan o‘yinlar tizimini nazariy jihatdan shakllantirish va uning samaradorligini amaliy jihatdan tahlil qilish imkonini berdi.</p>	<p>Klasterli yondoshuvlar o‘yinlarni tashkil etishning yangi metodik asoslari ishlab chiqildi. Analitik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadi, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun o‘quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘yinlarni tashkil etishning samarali usullari kerakli nazariy asoslarga ega. Yondoshuvlarni metodik jihatdan tahlil qilish orqali, o‘qituvchilar o‘z ishlarida samarali tarzda o‘yinlar tashkil etish uchun aniq ko‘rsatmalar va metodologik tavsiyalar olishdi.</p> <p>Klasterli yondoshuvlar o‘quvchilarning individual xususiyatlariga (yosh, jismoniy tayyorgarlik, psixologik holat) mos ravishda o‘yinlar rejalashtirilishini ta‘minlashga imkon beradi. Bu yondoshuv o‘quvchilar o‘rtasidagi farqlarni hisobga olib, har bir guruhning imkoniyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan</p>	<p>Analitik-metodik tahlil shuni ko‘rsatadi, klasterli yondoshuv jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlarni tashkil qilishda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishga qaratilgan samarali metodik yondoshuvdir. Bu o‘z navbatida o‘quvchilarni qiziqtirgan, motivatsiyasini oshirgan va ularning o‘quv jarayoniga faol ishtirok etishlarini ta‘minlagan.</p>



	holda harakatli o‘yinlarni muvaffaqiyatli tashkil qilishga yordam beradi.	
Tadqiqotda so‘rovnama va interv’yu usullari yordamida o‘qituvchilar va o‘quvchilarning klasterli yondoshuvlar asosida harakatli o‘yinlarni tashkil etish haqidagi fikr- mulohazalari to‘plandi. Bu usul orqali o‘qituvchilarning tajribasi, o‘quvchilarning fikrlari va mavjud muammolar aniqlanib, ularga samarali yondoshuvlar taklif qilindi	<p>So‘rovnama orqali o‘qituvchilarning 85% i klasterli yondoshuvlar asosida o‘yinlarni tashkil etishning foydaliligini ta’kidlagan. Ular bu metodning o‘quvchilarni faollashtirishda va ularning jismoniy rivojlanishida samarali ekanligini bildirishgan.</p> <p>Interv’yu natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilar klasterli yondoshuvlar yordamida o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olishda aniq maqsadli yondoshuvlarni amalga oshirish imkoniga ega bo‘lishgan. Shuningdek, ba’zi o‘qituvchilar uchun klasterli yondoshuvlarni qo‘llashda texnik va metodik qiyinchiliklar mavjudligini bildirishgan.</p>	<p>So‘rovnama va interv’yu natijalari klasterli yondoshuvlar asosida o‘yinlarni tashkil etishning samaradorligini ko‘rsatdi. O‘qituvchilar va o‘quvchilar klasterli yondoshuvlarning o‘quv jarayonini interaktiv va motivatsiyaviy jihatdan yaxshilashdagi ahamiyatini yuqori baholagan. Ammo, ba’zi o‘qituvchilar yangi metodni amalda qo‘llashda ba’zi qiyinchiliklarga duch kelganlar, bu o‘z navbatida o‘qituvchilar uchun qo‘srimcha o‘quv resurslari va tayyorgarlik zarurligini ta’kidladi.</p>
Kvantitativ tadqiqot usulidan foydalanish orqali, harakatli o‘yinlar orqali o‘quvchilarning jismoniy faolligi va umumiylarning rivojlanish darajasi o‘lchandi. Testlar va anketalar yordamida, o‘quvchilarning jismoniy faolligi, psixologik holati, va ijtimoiy ko‘nikmalarini aniqlanib, klasterli yondoshuvlarning samaradorligi o‘lchandi.	<p>Testlar orqali o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi o‘lchandi. Klasterli yondoshuvlar yordamida o‘quvchilarning jismoniy faolligi 20-25% ga oshgan. Bu natija, klasterli yondoshuvlar orqali o‘yinlar tashkil etishning jismoniy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi.</p> <p>Anketalar yordamida o‘quvchilarning o‘yinlarga qiziqish darajasi o‘lchandi. Klasterli yondoshuvlar</p>	<p>Kvantitativ tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, klasterli yondoshuvlar o‘quvchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘yinlar faollashtirilgan holda o‘qituvchilar tomonidan individual ehtiyojlar hisobga olinib, o‘quvchilarni muvaffaqiyatli rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, o‘quvchilarning motivatsiyasi va o‘yinlarga qiziqishi ortganini ko‘rsatdi.</p>



	asosida o‘yinlar o‘tkazish o‘quvchilarning 78% i tomonidan ijobjiy baholandi. O‘quvchilarning aksariyati, klasterli yondoshuvlar yordamida tashkil etilgan o‘yinlar o‘zgacha va qiziqarli ekanligini ta’kidlashgan.	
--	--	--

Tadqiqotda qo‘llangan analistik-metodik tahlil, so‘rovnoma va interv'yu, va kvantitativ tadqiqot usullari bo‘yicha olingan natijalar klasterli yondoshuvlar asosida harakatli o‘yinlarni tashkil etishning samarali va muvaffaqiyatli bo‘lishini tasdiqladi. Klasterli yondoshuvlar o‘quvchilarning jismoniy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishini yaxshilashga yordam beradi, lekin o‘qituvchilarga bu metodlarni amalda qo‘llash uchun qo‘srimcha tayyorgarlik va resurslar zarur.

Xulosa

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida harakatli o‘yinlarni tashkil etish mazmunini klasterli yondoshuvlar asosida tashkillashtirish mavzusi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, harakatli o‘yinlarni tashkil etishning samaradorligini ko‘rsatdi. Tadqiqotda klasterli yondoshuvlar yordamida o‘yinlarni tashkil etishning ta’lim jarayoniga, o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishiga, ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlashga hamda motivatsiyasini oshirishga bo‘lgan ijobjiy ta’siri aniqlandi. Klasterli yondoshuvlar yordamida tashkil etilgan o‘yinlar o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshirib, ularni yanada motivatsiyalashgan va faollashtirilgan holatda ta’lim jarayoniga jalb qiladi.

Klasterli yondoshuvlar asosida harakatli o‘yinlarni tashkil etishning ta’lim jarayonini interaktiv va samarali qilishda muhim vosita ekanligini ko‘rsatdi. O‘quvchilar uchun o‘zaro raqobat va hamkorlikni uyg‘otadigan, individual va guruh ehtiyojlarini hisobga olgan o‘yinlar va mashqlar nafaqat jismoniy rivojlanishni, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan ham o‘quvchilarni yuqori darajada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947 sonli Farmoni.



2. Xojayev P, Raximqulov K.D, Nigmanov B.B. “Harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi” Cho‘lpon nashriyoti T.: 2010 y.
- 3.T.Usmanxo‘jayev,A.Po‘latov,S.Tajibayev,F.Pulatov Sport va harakatli o‘yinlar. Darslik. Cho‘lpon Toshkent-2018.
4. Raximqulov K.D. “Milliy harakatli o‘yinlari” O‘quv qo‘llanma T.: 2012 y.
5. Usmonxo‘jaev T, Tolipjonov A, Meliev H, Xotamov N “500 harakatli o‘yinlar” uslubiy qo‘llanma Yangi asr avlodni nashriyoti Toshkent 2014 y.
6. T.S.Usmonxujayev, F.Xo‘jayev «1001 o‘yin» T. «O‘qituvchi» 1990 y.